



UZBEKISTAN'S COOPERATION WITH CENTRAL ASIAN COUNTRIES IN THE FIELD OF EDUCATION

Nafisa Akhmadova

Senior Lecturer, Asia University of Technology, PhD

axmadovanafisa56@gmail.com

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: diplomatic relations, international cooperation, CIS, MOH, Russia, China, USA, Central Asia, Kazakhstan, Tajikistan, foreign countries, diplomacy, embassy, economy, politics, science and education, scientific and technical, healthcare, travel, tourism, culture.

Received: 20.01.26

Accepted: 21.01.26

Published: 22.01.26

Abstract: Relations between Uzbekistan, the CIS and Central Asian countries, mutual exchange, historical-cultural dialogues, mutual agreements and agreements were highlighted and analyzed based on sources. The mutual cooperation of Uzbekistan with the countries of Central Asia in the economic, social and cultural spheres was touched upon. On the basis of mutual agreements, progress was made in the social, political and cultural, scientific and educational spheres. Future plans have been defined.

O'ZBEKISTONNING MARKAZIY OSIYO DAVLATLARI BILAN TA'LIM SOHASIDAGI HAMKORLIGI

Nafisa Axmadova

Osiyo texnologiyalar universiteti katta o'qituvchisi, PhD.

axmadovanafisa56@gmail.com

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: diplomatik munosabatlar, xalqaro hamkorlik, MDH, MOH, Rossiya, Xitoy, AQSh, Markaziy Osiyo, Qozog'iston, Tojikiston, xorijiy mamlakatlar, diplomatiya, elchixonona, iqtisodiyot, siyosat, fan va ta'lim, ilmiy- texnikaviy, sog'liqni saqlash, sayyohlik, turizm, madaniyat.

Annotatsiya: O'zbekiston va Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi aloqalar, o'zaro almashinuv, tarixiy-madaniy muloqotlar, o'zaro kelishuv va bitimlar manbalar asosida yoritildi va taxlil etildi. O'zbekistonning Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy sohalaridagi o'zaro hamkorligiga to'xtalib o'tildi. O'zaro kelishuvlar asosida ijtimoiy, siyosiy va madaniy, fan va ta'lim

sohalarida yutuqlarga erishildi. Keyingi istiqbolli rejalar belgilab olindi.

СОТРУДНИЧЕСТВО УЗБЕКИСТАНА СО СТРАНАМИ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ В СФЕРЕ ОБРАЗОВАНИЯ

Нафиса Ахмадова

Старший преподаватель

Азиатского технологического университета, PhD

axmadovanafisa56@gmail.com

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: дипломатические отношения, международное сотрудничество, СНГ, МЗ, Россия, Китай, США, Средняя Азия, Казахстан, Таджикистан, зарубежные страны, дипломатия, посольство, экономика, политика, наука и образование, научно-техническая деятельность, здравоохранение, путешествия, туризм, культура.

Аннотация: На основе источников были освещены и проанализированы отношения между Узбекистаном, странами СНГ и Центральной Азии, взаимный обмен, историко-культурный диалог, взаимные договоренности и соглашения. Было затронуто взаимное сотрудничество Узбекистана со странами Центральной Азии в экономической, социальной и культурной сферах. На основе взаимных договоренностей достигнут прогресс в социальной, политико-культурной, научной и образовательной сферах. Планы на будущее определены.

Kirish. Markaziy Osiyo davlatlari mustaqillikka erishgach, tarixiy munosabatlar mutlaqo o'zgacha qiyofaga va mazmun-mohiyatga ega bo'la bordi. Tarix va zamon shart-sharoiti o'zaro qo'shnichilik munosabatlarini eng zamonaviy talablar asosida qayta qurish zarurligini ko'rsatdi. Markaziy Osiyo davlatlari o'tgan asrning 90-yillarigacha dunyodan deyarli uzilib qolgan bo'lib, turli davlatlar bilan faol hamkorlikni o'rnatilishi ular uchun yangi imkoniyatlar eshigini ochdi. [1]

Mustaqillikning ilk yillaridan boshlab, O'zbekiston hukumati mintaqaviy integratsiya yo'lida doimo tashabbusni o'z qo'lida tutib turganligi kuzatiladi. Xususan, mustaqillikning dastlabki yillaridanoq O'zbekiston mintaqaviy ko'lamdagi xalqaro munosabatlarda faol sub'ekt sifatida o'zini ko'rsata oldi.

Ko'pgina siyosatshunoslarning fikricha, O'zbekistonning Markaziy Osiyodagi mavqei strategik xususiyatlarga ega ob'ektiv omillarga asoslanadi. Bu omillar, birinchidan, O'zbekiston mintaqadagi aholisi eng ko'p davlat, o'zbeklar esa mintaqadagi eng ko'p sonli millatdir. Ikkinchidan, O'zbekiston mintaqadagi besh davlat bilan umumiy chegaraga ega yagona davlat, u Markaziy Osiyoning markazida joylashgan. Uchinchidan, mintaqada o'tmishda hukm surgan davlatlarning poytaxtlari - Samarqand, Buxoro, Xiva, Qo'qon va Toshkent shaharlari

O'zbekistonda joylashgan. To'rtinchidan, O'zbekiston mintaqadagi eng rivojlangan iqtisodiy salohiyat, kommunikatsiyalar infratuzilmasi va malakali mehnat resuslariga ega.[2] Shu tufayli, O'zbekiston Respublikasi Markaziy Osiyo davlatlari bilan ko'p sohalardagi integratsiyalarda faol ishtirok etib kelmoqda.

Muhokama va natijalar. Istiqlol yillarida O'zbekiston Respublikasining qozoq millatiga mansub 600 dan ziyod fuqarosi yuksak davlat mukofoti va unvonlariga ega bo'ldi. Bu esa ularning mamlakatimiz taraqqiyotiga munosib hissa qo'shib, xalqimiz orasida hurmat qozonib, keng e'tirof etib kelinayotganining tasdig'idir.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev Qozog'iston Respublikasi Prezidentining taklifiga binoan 2018 yil 15 mart kuni amaliy tashrif bilan Ostona shahrida bo'ldi. Ushbu tarixiy uchrashuvda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti hamkorlikning ustuvor yo'nalishlari sifatida quyidagi asosiy vazifalarni hal etishni taklif etdi:

birinchidan, Markaziy Osiyoda xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlash yo'nalishida mintaqaviy hamkorlikni yanada kengaytirish;

ikkinchidan, savdo, iqtisodiy, innovatsiya, investitsiya, transport va kommunikatsiya, moliya, bank, suv, energetika va madaniy sohalardagi hamkorlik asosida -"yo'l xaritalari"ni ishlab chiqish;

uchinchidan, eng dolzarb xalqaro va mintaqaviy masalalar bo'yicha fikr almashish va ularni BMT, MDH, ShHT va boshqa ko'plab xalqaro tashkilotlar doirasida ilgari surishni taklif etdi.

2018 yil 15 mart kuni Markaziy Osiyo mamlakatlari – O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va Turkmaniston davlat rahbarlarining ishchi uchrashuvi ham bo'lib o'tdi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoevning taklifiga asosan Qozog'iston Prezidenti Qosim-Jomart Toqaev 2019 yilning 14-15 aprel kunlari davlat tashrifi bilan mamlakatimizda bo'ldi. Shuningdek, "O'zbekiston" xalqaro anjumanlar saroyida 2019 yil 15 aprel kuni O'zbekistonda Qozog'iston yilining rasmiy ochilish marosimi bo'ldi.[2]

O'zbek va qozoq xalqlari azaldan bir-biriga tayanch bo'lib, qiyinchiliklarni yengib o'tgani, bugungi kunda xalqlarimizning umumiy kelajagini ham birgalikda bunyod etayotgani ta'kidlandi. Ma'lumki, 2018 yil Qozog'istonda O'zbekiston yili deb e'lon qilindi. Bu yil doirasida san'at va madaniyat, adabiyot, ilm-fan, turizm va boshqa sohalarda 100 dan ortiq tadbirlar tashkil etildi. Teatr, folklor jamoalari va estrada xonandalarining ijodiy safarlari bo'lib o'tdi. Olmaotada o'zbek adabiyoti kunlari hamda Taraz, Chimkent, Qizilo'rda, Turkiston shaharlarida o'zbek kinosi kunlari bo'lib o'tdi.

O'zbekiston va Qozog'istonning bir qancha universitetlari va ilmiy markazlari o'rtasida doimiy ilmiy almashuvlar olib borilmoqda. Misol uchun, O'zbekistondagi Toshkent Davlat Yuridik Universiteti va Qozog'istonning Al-Farobiy nomidagi Qozog'iston Milliy Universiteti

o'rtasida ko'plab seminarlar, konferensiyalar va ta'lim dasturlari tashkil etilmoqda. Bu universitetlar talabalarini almashish dasturlari orqali ta'lim olish imkoniyatlarini yaratadi.

Hamkorlik nafaqat ta'lim bilan cheklanmay, balki ilmiy tadqiqotlarda ham kuchli o'sishga erishgan. O'zbekiston va Qozog'iston olimlari o'rtasida qo'shma ilmiy loyihalar va tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Yangi texnologiyalar va innovatsion yechimlarni ishlab chiqish uchun ikki davlatning ilmiy xodimlari birgalikda ishlamoqda. Bunday hamkorliklar ikki tomonlama manfaat keltiradi, chunki ilm-fan sohasidagi yutuqlar tez tarqaladi va keng ommaga yetkaziladi.

2022-yilning 23-dekabrida O'zbekiston va Qozog'iston davlat rahbarlarining kengaytirilgan muzokaralari bo'lib o'tdi. Muzokaralar yakunida ikki davlat o'rtasida turli sohalardagi kelishuv va shartnomalar qatorida oliy ta'lim va undan keyingi ta'lim sohasida hamkorlik to'g'risida bitim imzolandi. Hujjat ikki mamlakatning oliy ta'lim tizimiga mas'ul rahbarlar tomonidan imzolandi va ushbu hamkorliklarni bundan buyon ham davom ettirishga kelishildi. Unda har yili 20 nafar ikki mamlakat fuqarolarini oliy o'quv yurtlarda o'qitish, O'zbekistonda qozoq tili va adabiyoti, Qozog'istonda esa o'zbek tili va adabiyotini o'qitishni yo'lga qo'yish, ta'lim va ilm-fan sohasida loyihalarni amalga oshirish, dasturlar, konferensiya, seminar, mahorat darslari, olimpiadalar tashkil etish, ilmiy tadqiqotlar olib borish, ikki davlat ilmiy jurnallarida maqolalar chop etishni kuzda tutadi. Shu o'rinda aytish lozimki, bugungi kunda O'zbekiston va Qozog'iston o'rtasida universitetlararo aloqalar yanada kengaymoqda. Bugungi kunda O'zbekiston va Qozog'iston oliy o'quv yurtlari (Qozog'istonning 70 dan ortiq universiteti) o'rtasida hamkorlik bo'yicha 230 dan ortiq shartnoma va memorandum mavjud.

Mamlakatimizning 6 ta oliy o'quv yurtida qozoq tili va adabiyoti yo'nalishlarida kadrlar tayyorlanmoqda. Shuningdek, O'zbekistonda har yili Qozog'iston oliy o'quv yurtlarining "Qozog'iston ta'lim kunlari" ko'rgazma-yarmarkalari o'tkaziladi.

Ikki mamlakat davlat rahbarlari Markaziy Osiyo rektorlari forumini bundan buyon an'anaviy tarzda tashkil etib borishni qo'llab-quvvatladilar. 2022-yilning 12-13-may kunlari Olmaota shahrida tashkil etilgan Markaziy Osiyo mamlakatlari rektorlarining birinchi forumida yurtimizning 15 dan ortiq oliy o'quv yurti rektori va vazirlik mas'ullaridan iborat delegatsiya ishtirok etgan edi [3].

O'zbekiston va Qozog'iston o'rtasidagi fan va ta'lim sohasidagi hamkorliklar kelajakda yanada kengayishi kutilmoqda. Har ikki davlatning rahbarlari ushbu sohada qo'shma dasturlarni amalga oshirishda davom etishni, ilmiy va ta'limiy resurslarni yanada samarali boshqarishni rejalashtirmoqda. Bu, o'z navbatida, ikki mamlakat o'rtasida bilim almashinuvi va innovatsion rivojlanish uchun katta imkoniyatlar yaratadi.

O'zbekiston va Tojikiston xalqlarini ko'p asrlik do'stlik va yaxshi qo'shnichilik, yagona din, o'xshash madaniyat, urf-odat va an'analar bir-biriga mustahkam bog'lab turadi. Bugungi kunda

tojik millatiga mansub qariyb 1,5 million O'zbekiston fuqarosi mamlakatimizda istiqomat qilyapti va davlatimiz taraqqiyotiga o'z hissasini qo'shmoqda. Ular orasida davlat arboblari, korxonalar rahbarlari va san'atkorlar ham mavjud va ularning ko'pchiligi davlatimizning yuksak mukofot va unvonlariga ega bo'lganlar [4]. Xususan, Prezident Shavkat Mirziyoevning taklifiga binoan Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmon 2018 yilning 17 avgust kuni davlat tashrifi bilan keldi [5].

Mamlakatlarimiz BMT, ShHT, MDH kabi xalqaro tuzilmalar doirasida ham samarali hamkorlik qilib kelmoqda. Mintaqaviy va xalqaro ahamiyatga molik masalalarda tomonlarning qarashlari o'xshash yoki yaqindir. Jumladan, qo'shni Afg'onistonda barqarorlikni ta'minlash borasida tomonlar xalqaro hamjamiyat bilan samarali hamkorlik qilmoqda.

Jumladan, 2024-yilning 15–16-aprel kunlari O'zbekiston Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan O'zbekiston-Tojikiston oliy ta'lim muassasalari rektorlarining ikkinchi forumi tashkil etildi. Xususan, O'zbekiston va Tojikistonda oliy ta'lim va ilm-fanni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari" mavzusida Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida katta anjuman o'tkazildi. Anjumanda Tojikiston Respublikasi Ta'lim va fan vaziri Rahim Saidzoda boshchiligida tashrif buyurgan 30 ga yaqin nufuzli oliy ta'lim muassasalari rektorlaridan iborat delegatsiya va O'zbekiston tomonidan 50 ga yaqin oliy ta'lim muassasalari rahbarlari, vazirlik va idoralar mas'ullari qatnashdi.

Hozirda yurtimizning 5 ta oliy ta'lim muassasasida ta'lim tojik tilida yuritilayotgan maktablar uchun kadrlar tayyorlanadi. 2020/2021 o'quv yilida tojik tilidagi ta'lim yo'nalishlari bo'yicha qabul parametrlari ikki baravar oshirildi.

O'zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlari bilan ta'lim sohasidagi hamkorligi izchil ravishda rivojlanib, mintaqada umumiy ta'lim makoni shakllanishiga zamin yaratdi. Hamkorlikning huquqiy asoslari mustahkamlandi, qo'shma dasturlar, talabalar almashinuvi, o'quv-metodik markazlar va ilmiy loyihalar yo'lga qo'yildi. Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va Turkmaniston bilan ta'lim sohasidagi bitimlar natijasida akademik mobillik ko'rsatkichlari oshdi, qo'shma fakultetlar va qo'shma ta'lim dasturlari tashkil etildi, o'qituvchilar malakasini oshirish bo'yicha yangi mexanizmlar joriy etildi.

O'zbekistonning tashabbuslari mintaqaviy integratsiya jarayonini kuchaytirib, Markaziy Osiyoda sifatli ta'lim, ilmiy texnologiyalar va innovatsion hamkorlikning rivojlanishiga xizmat qildi. Natijada mintaqada yoshlarining raqobatbardosh kasb-hunarga ega bo'lishi, ilmiy salohiyatning oshishi va ta'lim tizimlarining uyg'unlashuvi ta'minlandi.

O'zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlari bilan ta'lim sohasidagi hamkorligi tarixiy, madaniy va geosiyosiy jihatdan umumiy mintaqaviy manfaatlarga tayanadi. Mustaqillikdan keyingi dastlabki yillarda iqtisodiy qiyinchiliklar hamkorlik sur'atlarini sekinlashtirgan bo'lsa-da,

soʻnggi yillarda siyosiy muloqotning jonlanishi taʼlim integratsiyasining yangi bosqichiga yoʻl ochdi.

Hamkorlikning faol yoʻlga qoʻyilishi bir necha omillar bilan izohlanadi:

- Mintaqaviy integratsiya ehtiyoji – iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlanish taʼlim tizimlarining uygʻunlashuvini talab qildi.

- Raqobatbardosh kadrlar tayyorlash zarurati – global bozor sharoitida Markaziy Osiyo davlatlari oʻz ilmiy-texnik salohiyatini birlashtirishga intilmoqda.

- Xalqaro tajribaga moslashuv – xalqaro dasturlar (Erasmus+, KOICA, JICA, Islom taraqqiyot banki) doirasida qoʻshma loyihalar mintaqa davlatlari oʻrtasida hamkorlikni ragʻbatlantirmoqda.

- Transport va aloqa imkoniyatlarining kengayishi – talabalar va professor-oʻqituvchilarning harakati yengillashdi.

Shu bilan birga, Oʻzbekistonning tashabbuskor siyosati mintaqaviy taʼlim makonini shakllantirishda muhim omil boʻlib xizmat qilmoqda. Yaqin yillarda qoʻshma universitetlar sonining oshishi, ilmiy klasterlar tashkil etilishi va akademik mobillikning kengayishi mintaqa taʼlim tizimining integratsiyasini yanada chuqurlashtiradi.

Xulosa. Oʻzbekistonning Markaziy Osiyo davlatlari bilan taʼlim sohasidagi hamkorligi mintaqaviy aloqalarning yangi bosqichga koʻtarilishiga xizmat qilmoqda. Hamkorlikning institutsional asoslari yaratildi, qoʻshma taʼlim dasturlari va universitetlar faoliyati kengaymoqda, ilmiy hamkorlik va akademik mobillik izchil rivojlanmoqda. Bu jarayon Oʻzbekiston taʼlim tizimining raqobatbardoshligini oshirib, mintaqa davlatlari bilan ilmiy-texnik salohiyatni birlashtirish imkonini yaratmoqda.

Shunday qilib, Oʻzbekiston tashabbuskorligi mintaqaviy taʼlim integratsiyasi, ilmiy hamkorlik va innovatsion rivojlanish jarayonlarida muhim oʻrin tutmoqda.

Taʼlim standartlarini uygʻunlashtirish, qoʻshma universitetlar va fakultetlar sonini oshirish, professor-oʻqituvchilar almashinuvini kengaytirish, Markaziy Osiyo ilmiy-tadqiqot klasterini yaratish, talabalar almashinuv dasturlarini kengaytirish, raqamli taʼlim platformalarini birgalikda rivojlantirish, moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish singari ishlar rejalashtirilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Neil J.Melvin. Engaging Central Asia. Center for European Policy Studies. - Brussels, 2008. – P.1.
2. Safoev S.S. Markaziy Osiyodagi geosiyosat. – T.: 2005. –B.29-31.
3. Joʻraev N. Mustaqil Oʻzbekiston tarixi. - T.: Gʻafur Gʻulom, 2013. - B.640-641 .
4. Mirziyoev Sh.M. Milliy tiklanishdan- milliy yuksalish sari. Asarlar, 4-tom. – T. Oʻzbekiston, 2020. – B. 255-256.

5. “Xalq so‘zi” gazetasi, 2020 yil 19 dekabr, №268 (7770).